

## YASHIL IQTISODIYOT, ESG MEZONLARI VA KORXONALAR IJTIMOIY-EKOLOGIK MAS'ULIYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

**Qudratov Azizjon Dehqonboyevich**  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
**Eshbekov Murodjon Uktamovich**  
Buxoro davlat universiteti talabasi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari va korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Globallashuv va iqlim o'zgarishlari sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishga hissasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda abstrakt-mantiqiy metodlardan foydalanilgan. UNEP, World Bank va GRI kabi xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari tahlilga jalb etilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot tamoyillari ESG mezonlarining nazariy asosini tashkil etishini, korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati esa ushbu ikki konsepsiyaning amaliy sintezi ekanligini isbotlaydi. ESG reytingi yuqori korxonalar uzoq muddatli moliyaviy va ekologik barqarorlikka ega ekanligi ham aniqlangan. Maqola korxonalar boshqaruvida ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishning zarurligi to'g'risida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari, ijtimoiy-ekologik mas'uliyat, korxonalar barqarorligi, korporativ boshqaruv, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish

### Abstract

This article scientifically examines the interrelationship between the concept of green economy, ESG (Environmental, Social, Governance) criteria, and the socio-ecological responsibility of enterprises. In the context of globalization and climate change, the contribution of enterprises to sustainable development is becoming increasingly important. The study employs comparative analysis, a systematic approach, and abstract-logical methods. Data from international organizations such as UNEP, the World Bank, and GRI have been incorporated into the analysis. The findings demonstrate that the principles of the green economy form the theoretical foundation of ESG criteria, while the socio-ecological responsibility of enterprises represents the practical synthesis of these two concepts. It has also been established that enterprises with high ESG ratings possess greater long-term financial and environmental sustainability. The article serves to develop practical recommendations on the necessity of integrating environmental and social factors into corporate governance.

**Keywords:** green economy, ESG criteria, socio-ecological responsibility, enterprise sustainability, corporate governance, environmental policy, sustainable development

## Аннотация

В данной статье научно исследована взаимосвязь между концепцией зелёной экономики, критериями ESG (Environmental, Social, Governance) и социально-экологической ответственностью предприятий. В условиях глобализации и изменения климата вклад предприятий в устойчивое развитие приобретает всё большее значение. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода, а также абстрактно-логические методы. В анализ привлечены данные таких международных организаций, как ЮНЕП, Всемирный банк и GRI. Результаты исследования доказывают, что принципы зелёной экономики составляют теоретическую основу критериев ESG, тогда как социально-экологическая ответственность предприятий является практическим синтезом этих двух концепций. Также установлено, что предприятия с высоким рейтингом ESG обладают долгосрочной финансовой и экологической устойчивостью. Статья служит разработке практических рекомендаций о необходимости учёта экологических и социальных факторов в корпоративном управлении.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, критерии ESG, социально-экологическая ответственность, устойчивость предприятия, корпоративное управление, экологическая политика, устойчивое развитие

## KIRISH

Yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati masalalari bugungi kunda global iqtisodiy tizimning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik inqirozning kuchayishi sharoitida korxonalar o'z faoliyatini nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki atrof-muhit va jamiyat oldidagi mas'uliyat nuqtai nazaridan ham baholashga majbur bo'lmoqda. Bu holat iqtisodiy fan oldiga yangi nazariy va amaliy vazifalarni qo'yimoqda.

Jahon miqyosida kuzatilayotgan miqdoriy o'zgarishlar mazkur jarayonning qanchalik tez sur'atlarda rivojlanayotganligini ko'rsatib bermoqda. Bloomberg Intelligence tadqiqotlariga ko'ra, global ESG aktivlari 2022-yilda 30 trillion AQSh dollaridan oshdi va 2030-yilga kelib 40 trillion dollardan ham yuqori ko'rsatkichga yetishi kutilmoqda, bu esa dunyo bo'yicha boshqaruvdagi aktivlarning 25 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha dunyo kompaniyalarining 91 foizi barqarorlik bo'yicha ma'lumotlarni oshkor etgan, bu ko'rsatkich 2022-yildagi 86 foizdan sezilarli darajada yuqoridir<sup>1</sup>.

Korxonalar uchun ESG endi ixtiyoriy tashabbus emas, balki strategik zaruriyatga aylandi. Dunyo bo'yicha 500 ta yirik kompaniyaning 84 foizi iqlim o'zgarishlarini moliyaviy xavf omili sifatida tan olgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yildagi 67 foizga nisbatan keskin oshgan. Bundan tashqari, ijrochi rahbarlarning 76 foizi barqarorlikni

<sup>1</sup> <https://www.bloomberg.com/company/press/global-esg-assets-predicted-to-hit-40-trillion-by-2030-despite-challenging-environment-forecasts-bloomberg-intelligence/>

biznes strategiyasining markaziy elementi sifatida belgilagan. PwC tomonidan o'tkazilgan global investorlar so'rovnomasiga ko'ra, investorlarning 70 foizidan ko'prog'i o'zlari mablag' kiritayotgan kompaniyalar barqarorlikni bevosita biznes strategiyasiga kiritishi kerak, deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ushbu o'zgarishlarning nazariy poydevori sifatida maydonga chiqmoqda. Yashil iqtisodiyot g'oyasi insoniyatning tabiiy resurslardan foydalanish tarzini tubdan o'zgartirish, past uglerodik, resurslarni tejovchi va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiy modelga o'tishni nazarda tutadi. 2025-yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Korporativ Barqarorlik Hisoboti Direktivi (CSRD) doirasida ESG va barqarorlik bo'yicha majburiy hisobot taqdim etish talabi joriy etildi, bu esa ixtiyoriy, sifatliy hisobotlardan ma'lumotlarga asoslangan yondashuvga o'tishda muhim burilish nuqtasini belgilab berdi<sup>2</sup>.

Shu bilan birga, nazariy jihatdan ushbu uch tushuncha, ya'ni yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va ijtimoiy-ekologik mas'uliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy adabiyotda hali to'liq va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Aksariyat ilmiy ishlarda ular alohida-alohida ko'rib chiqilib, o'zaro bog'liqlik va sintez masalasiga yetarli e'tibor berilmagan. Shu sababli mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati va zarurati aniq ko'zga tashlanib turibdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot tamoyillari, ESG mezonlari tizimi va korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni nazariy jihatdan asoslash, ularning konseptual munosabatlarini aniqlash hamda korxonada boshqaruvida ularni birgalikda qo'llashning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqot nazariy-konseptual yondashuv asosida qurilgan bo'lib, yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyatiga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarning chuqur tahlilini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda birlamchi ma'lumot manbai sifatida UNEP, OECD, World Bank, Bloomberg Intelligence, GRI (Global Reporting Initiative) va PwC kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan rasmiy hisobotlar, shuningdek Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida indekslangan xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalar qo'llanildi.

Adabiyotlarni tanlashda bir nechta mezon hisobga olindi. Birinchidan, manbalarning dolzarbligi ta'minlandi, ya'ni asosan 2015-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda nashr etilgan ilmiy ishlar tahlilga jalb etildi. Ikkinchidan, manbalarning ishonchliligi va ilmiy e'tirofqa sazovorligi e'tiborga olindi. Uchinchidan, mavzu bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mezoni qo'llanildi, ya'ni faqat yashil iqtisodiyot, ESG va korporativ mas'uliyat tushunchalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadqiqotlar tanlab olindi.

<sup>1</sup> <https://www.keyesg.com/article/50-esg-statistics-you-need-to-know>

<sup>2</sup> <https://www.venasolutions.com/blog/esg-statistics>

Tadqiqotda qoʻllanilgan usullar oʻzaro toʻldiruvchi tizim sifatida ishlatildi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va ijtimoiy-ekologik masʼuliyat konsepsiyalarining oʻxshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv metodi ushbu uch tushunchani alohida elementlar sifatida emas, balki oʻzaro bogʻliq, yaxlit bir tizim sifatida koʻrib chiqish imkonini berdi. Abstrakt-mantiqiy metod esa umumiy nazariy xulosalarni shakllantirish va konseptual modelni qurishda qoʻllanildi. Monografik metod orqali mavzu boʻyicha yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari alohida va chuqur oʻrganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlil va ilmiy adabiyotlarni oʻrganish asosida bir qator muhim natijalar olindi. Ushbu natijalar uch asosiy yoʻnalish boʻyicha tizimlashtirilib, quyida ketma-ket bayon etiladi.

Birinchi natija: Yashil iqtisodiyot ESG mezonlarining nazariy poydevori hisoblanadi.

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ESG mezonlari tizimining vujudga kelishiga bevosita zamin yaratgan. UNEP tomonidan 2011-yilda rasmiy tarzda eʼlon qilingan yashil iqtisodiyot taʼrifida past uglerodik, resurs tejankor va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiy model nazarda tutilgan boʻlib, bu gʻoyalar keyinchalik ESG mezonlarining E va S komponentlarida oʻzining aniq oʻlchovli ifodasini topdi. Boshqacha aytganda, yashil iqtisodiyot falsafiy va siyosiy ramka sifatida ishlagan boʻlsa, ESG uni korporativ boshqaruvda amalda oʻlchash va baholash vositasiga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan ikkala konsepsiya bir-birini mazmunan toʻldiradi va birgalikda barqaror rivojlanishning iqtisodiy modelini tashkil etadi.

Ikkinchi natija: Korxonalarining ijtimoiy-ekologik masʼuliyati yashil iqtisodiyot va ESG mezonlarining amaliy sintezi sifatida namoyon boʻladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlandiki, ijtimoiy-ekologik masʼuliyat tushunchasi yashil iqtisodiyotning umumiy tamoyillarini va ESG mezonlarining oʻlchovli koʻrsatkichlarini korxonalar ichki boshqaruv amaliyotida birlashtiruvchi bogʻlovchi boʻgʻin vazifasini bajaradi. OECD maʼlumotlariga koʻra, 2024-yilda bozor kapitalizatsiyasi boʻyicha kompaniyalarning 70 foizida kengash iqlim bilan bogʻliq masalalarni bevosita nazorat qilgan, bu koʻrsatkich 2022-yildagi 53 foizdan sezilarli darajada yuqoridir. Bu raqam shuni koʻrsatadiki, ekologik va ijtimoiy masʼuliyat endi korxonalarining boshqaruv tuzilmasida institutsional tarzda mustahkamlanmoqda, yaʼni u nafaqat eʼlon qilingan qadriyat, balki boshqaruv mexanizmi darajasiga koʻtarilmoqda<sup>1</sup>.

Uchinchi natija: ESG reytingi yuqori korxonalar uzoq muddatli barqarorlikka ega.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, dunyo boʻyicha 500 ta yirik kompaniyaning 84 foizi iqlim oʻzgarishlarini moliyaviy xavf omili sifatida tan olgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2021-yildagi 67 foizga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari, Deloitte tadqiqotiga koʻra, ijrochi rahbarlarning 98 foizi oʻtgan yil davomida barqarorlik maqsadlari sari maʼlum darajada ilgarilaganligi haqida hisobot bergan. Bu natijalar

<sup>1</sup> [https://www.oecd.org/en/publications/global-corporate-sustainability-report-2025\\_bc25ce1e-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/global-corporate-sustainability-report-2025_bc25ce1e-en.html)

shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlariga rioya qilish korxonalar uchun faqat ijtimoiy mas'uliyat emas, balki moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda<sup>1</sup>.

To'rtinchi natija: Majburiy ESG hisobotchiligiga o'tish jarayoni tezlashmoqda.

2025-yilda Yevropa Ittifoqining Korporativ Barqarorlik Hisoboti Direktivi (CSRD) doirasida minglab kompaniyalar uchun majburiy barqarorlik hisobotlari taqdim etish talabi kuchga kirdi, bu esa ixtiyoriy va sifatli hisobotlardan ma'lumotlarga asoslangan tizimli yondashuvga o'tishda muhim burilish nuqtasini belgilab berdi. 2025-yilda ESG ga qarshi kayfiyat AQSh ijrochi rahbarlari uchun to'rtinchi eng yirik tashqi ESG muammosi sifatida baholangan bo'lsa-da, u global yoki Yevropa rahbarlari uchun dastlabki beshtalikka kirmagan. Bu farq shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlarining qabul qilinish darajasi hududlar bo'yicha farq qilsa-da, global tendensiya barqaror rivojlanish yo'lida davom etmoqda<sup>2</sup>.

Beshinchi natija: Uch konsepsiya o'rtasida konseptual iyerarxiya mavjud.

Olib borilgan tahlil asosida ushbu uch tushuncha o'rtasida quyidagi konseptual iyerarxiya aniqlandi. Yashil iqtisodiyot eng yuqori, makroiqtisodiy darajada joylashib, umumiy yo'nalish va siyosat ramkasini belgilaydi. ESG mezonlari o'rta, korporativ darajada joylashib, yashil iqtisodiyot tamoyillarini o'lchovli ko'rsatkichlarga aylantiradi. Korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati esa eng quyi, operatsion darajada joylashib, ushbu ikki konsepsiyaning kundalik boshqaruv amaliyotida namoyon bo'lish shakli sifatida ishlaydi. Ushbu iyerarxik munosabat ularning bir-birini inkor etmasligini, aksincha, o'zaro mustahkamlaydigan yaxlit tizimni tashkil etishini isbotlaydi.

Shunday qilib, barcha beshta natija birgalikda ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy xulosasini qo'llab-quvvatlaydi: yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va korxonalarining ijtimoiy-ekologik mas'uliyati bir-biridan ajralgan hodisalar emas, balki barqaror rivojlanishning yaxlit konseptual tizimini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq elementlardir.

Tadqiqot davomida olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro statistik ma'lumotlar va nazariy konsepsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda bir qator muhim va chuqur xulosalar shakllanadi. Ushbu muhokama qismi besh asosiy yo'nalish bo'yicha tuzilgan bo'lib, natijalarni izohlash, mavjud ziddiyatli fikrlarni tahlil qilish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqotning cheklovlarini ochiq tan olishni o'z ichiga oladi.


Birinchi yo'nalish: Yashil iqtisodiyot va ESG munosabatining nazariy tasdiqlanishi

Tadqiqot davomida aniqlangan konseptual iyerarxiya, ya'ni yashil iqtisodiyotning ESG mezonlari uchun nazariy poydevor vazifasini bajarishi va ijtimoiy-ekologik mas'uliyatning ularning amaliy sintezi ekanligi, xalqaro miqyosdagi tendensiyalar bilan to'liq mos keladi. FTSE Russell tadqiqotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot bugungi kunda 50 ta bozorda mustaqil sektor sifatida tan olingan bo'lib, agar u alohida tarmoq sifatida ko'rilsa, texnologiya, sanoat va sog'liqni saqlashdan keyingi to'rtinchi yirik

<sup>1</sup> <https://www.deloitte.com/us/en/services/audit-assurance/articles/esg-survey.html>

<sup>2</sup> <https://www.venasolutions.com/blog/esg-statistics>

sektor hisoblanadi va yashil daromadlarning 44 foizi Osiyo mintaqasida shakllanmoqda. Bu raqam yashil iqtisodiyotning nazariy g'oyadan real bozor kuchiga aylanganligini isbotlaydi. Biroq ushbu o'sish bir tekis kechmaydi: Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida 1999 yildan 2024 yilgacha nashr etilgan 119 ta maqolani qamrab olgan tizimli tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yashil raqobatbardoshlik uchun keng qamrovli konseptual doiralar hali ishlab chiqilmagan va ESG mezonlarining korporativ yashil innovatsiyaga ta'siri, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarda, yetarlicha o'rganilmagan. Bundan kelib chiqadiki, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.



**1-rasm. Global ESG aktivlarining o'sish dinamikasi<sup>2</sup> 2016–2030 yillar, trillion AQSh dollari**

Ikkinchi yo'nalish: ESG va moliyaviy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikning empirik tahlili

ESG mezonlari va korporativ moliyaviy natijalar o'rtasidagi munosabat ilmiy adabiyotlarda eng ko'p munozara qilinayotgan masalalardan biri bo'lib, bu ziddiyatli xulosalar bizning natijalarimizni yanada chuqurroq izohlashni talab etadi. Tailand birjasida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar bo'yicha 2019 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ESG reytingi yuqori kompaniyalar kapital rentabelligi (ROE), aktivlar rentabelligi (ROA) va bozor qiymati bo'yicha ustun natijalar ko'rsatadi. Ayniqsa energetika va ishlab chiqarish tarmoqlarida ekologik amaliyotlardan ijobiy ta'sir aniq kuzatiladi. Ko'p o'zgaruvchili regress tahlili kompaniyaning umumiy ESG balli va uning moliyaviy samaradorligi, ya'ni ROA va ROE ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan sezilarli ijobiy korrelyatsiya

<sup>1</sup> <https://link.springer.com/article/10.1007/s43621-025-02065-0>

<sup>2</sup> Manba: Bloomberg Intelligence, GSIA

mavjudligini aniqladi. Bu shuni anglatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruvga ko'proq investitsiya kiritish atrof-muhitga ta'siri katta bo'lgan tarmoqlardagi kompaniyalar uchun yuqori moliyaviy daromadga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, Hindiston, AQSh va Yaponiyaning IT kompaniyalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ESG ballari bilan kapital rentabelligi (ROE) va Tobin Q ko'rsatkichlari o'rtasida o'rtacha musbat korrelyatsiya mavjudligini aniqladi, ya'ni korrelyatsiya koeffitsiyenti mos ravishda 0,38 va 0,43 ni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, bu munosabat har doim ham bir xil darajada kuchli emasligi muhim cheklov sifatida tan olinishi zarur. COVID-19 pandemiyasidan oldin va keyin ESG ta'sirini solishtirgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pandemia davrida ekologik ball 31,42 dan 36,07 gacha, ijtimoiy ball 47,38 dan 51,79 gacha, boshqaruv balli esa 50,01 dan 52,01 gacha oshdi, ya'ni ESG ko'rsatkichlari yaxshilandi. Biroq shunga qaramay, moliyaviy ko'rsatkichlar yomonlashdi: ROA 0,076 dan 0,047 gacha, ROE esa 0,195 dan 0,106 gacha pasaydi. Bu paradoksal holat shuni ko'rsatadiki, ESG ko'rsatkichlari va moliyaviy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik tashqi makroiqtisodiy omillar, masalan, pandemiya yoki geosiyosiy inqirozlar ta'sirida zaiflashishi mumkin. Bu esa o'z navbatida yashil iqtisodiyot, ESG va ijtimoiy-ekologik mas'uliyat o'rtasidagi munosabatni kontekstga bog'liq tizim sifatida baholash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi<sup>2</sup>.


Uchinchi yo'nalish: Greenwashing muammosi va ESG ning haqiqiy samaradorligi

Tadqiqotning eng muhim va o'tkir xulosalaridan biri greenwashing, ya'ni soxta yashil imijga tegishlidir. Bu hodisa yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va ijtimoiy-ekologik mas'uliyat o'rtasidagi nazariy bog'liqlikning amalda to'liq ro'yobga chiqishini to'suvchi eng jiddiy to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili greenwashing sohasida uchta asosiy mavzu mavjudligini aniqladi: yashil sa'y-harakatlarni bo'rttirib ko'rsatish, ESG oshkoraligining haqiqiy samaradorlik bilan nomuvofiqlik muammosi va salbiy jihatlarni hisobotlarda yashirish strategiyalari. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori ESG reytingiga ega yoki ekologik ball bo'yicha yetakchi kompaniyalar haqiqatda past uglerod chiqindilariga ega emas, ya'ni yuqori ESG bahosi korxonani atrof-muhit uchun yanada ko'proq ish qilishga undamaydi, chunki u allaqachon ekologik jihatdan obro'li sifatida tan olingan. Bu topilma yashil iqtisodiyot va ESG mezonlari o'rtasidagi bog'liqlikni ortiqcha idealistik tarzda tasvirlamaslik zarurligini ko'rsatib beradi va uch konsepsiyaning o'zaro munosabatida institutsional nazorat mexanizmlarini kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ekologik xabardorlik yuqori bo'lsa-da, greenwashing qoidalari kam va yumshoq, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda greenwashing muammosini yanada keskinlashtiradi. Bu holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun alohida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ESG mezonlarini joriy etishda nafaqat rasmiy talablar, balki

<sup>1</sup> <https://www.econjournals.com/index.php/ijefi/article/download/18599/8993/45786>

<sup>2</sup> <https://link.springer.com/article/10.1007/s43621-025-01401-8>

real nazorat mexanizmlari va shaffoflik tizimlarini ham bir vaqtda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi<sup>1</sup>.



**2-rasm. SG komponentlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri<sup>2</sup>.**

To‘rtinchi yo‘nalish: ESG komponentlarining differensial ta’siri va yashil innovatsiya bilan bog‘liqligi

Tadqiqot natijalarimizda aniqlangan uch konsepsiya iyerarxiyasini yanada murakkablashtiruvchi muhim topilma ESG ning uchta komponenti, ya’ni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv o‘lchovlarining turlicha ta’sir kuchiga egaligiga tegishlidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv (Governance) komponenti moliyaviy barqarorlikka eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ekologik va ijtimoiy omillar esa bozor qiymatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. ESG ning har bir o‘lchoviga tegishli alohida amalga oshirish xarajatlarini e’tiborsiz qoldirish samarasiz resurs taqsimotiga olib kelishi mumkin va bu korporativ amaliyotni yo‘naltirishga to‘sqinlik qiladi. Bu muhim cheklov sifatida e’tirof etilishi lozim: yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik o‘lchovni birinchi o‘ringa qo‘ysa, ESG tizimida boshqaruv komponenti ko‘pincha moliyaviy samaradorlik uchun hal qiluvchi bo‘ladi. Ushbu ziddiyatning mavjudligi uchala konsepsiyani birlashtirishda ularning ichki mantiqiy farqlarini hisobga oluvchi moslashuvchan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.


Bundan tashqari, yashil innovatsiya ESG samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan bo‘lib, raqamli transformatsiya bu munosabatda qisman vositachi sifatida ishlaydi<sup>3</sup>. Bunda ushbu ijobiy ta’sir Sharqiy mintaqalarda, davlat korxonalarida, o‘sisdan oldingi bosqichdagi va og‘ir sanoat tarmoqlaridagi korxonalarda yanada yaqqol kuzatiladi. Bu topilma yashil iqtisodiyot, ESG va ijtimoiy-ekologik mas’uliyat o‘rtasidagi munosabat texnologik rivojlanish darajasiga ham

<sup>1</sup> <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311975.2024.2320812>

<sup>2</sup> Manba: Frontiers in Sustainability, Khon Kaen University tadqiqoti (2019–2024 yillar)

<sup>3</sup> <https://www.econjournals.com/index.php/ijefi/article/download/18599/8993/45786>

bevosita bog‘liqligi va raqamli transformatsiya bu uch tushunchani birlashtiruvchi yangi kanal sifatida ishlashini ko‘rsatadi.



**3-rasm. ESG amaliyotidagi asosiy muammolar va cheklovlar<sup>1</sup>.**

Beshinchi yo‘nalish: Tadqiqotning cheklovlari, amaliy tavsiyalar va kelajak yo‘nalishlari

Mazkur tadqiqot bir qator muhim cheklovlarga ega bo‘lib, ularni ochiq tan olish ilmiy halollikning muhim talabi hisoblanadi. Birinchidan, nazariy-konseptual yondashuv tufayli olingan xulosalar empirik tekshiruvni talab qiladi. Uch konsepsiya o‘rtasidagi iyerarxik munosabat modeli real korxonalar misolida turli sanoat tarmoqlari va geografik hududlar kesimida sinab ko‘rilishi zarur. Ikkinchidan, ESG tadqiqotlari bo‘yicha 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan tizimli tahlil ko‘rsatishicha, o‘rganilgan ilmiy ishlarning 68,5 foizi ma‘lumotlar sifati bo‘yicha cheklovlarni tan olgan va 67 foizi o‘lchov standartlashtirish muammosini o‘z natijalariga ta‘sir qiluvchi omil sifatida qayd etgan<sup>2</sup>. Bu raqamlar ESG sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning metodologik poydevori hali mustahkamlanmagan ekanligini va ushbu cheklov mazkur tadqiqotga ham tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, tadqiqotda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstiga oid empirik ma‘lumotlar kamligini tan olish zarur, chunki mavjud xalqaro statistika asosan rivojlangan va yirik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni qamrab oladi.

Amaliy tavsiyalar nuqtai nazaridan ushbu tadqiqot bir necha muhim yo‘nalishlarni belgilaydi. Davlat siyosati darajasida hukumatlar ESG mezonlarini milliy barqaror rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilishi, soliq imtiyozlari, moliyaviy subsidiyalar va yashil kredit mexanizmlari orqali korxonalarni ekologik

<sup>1</sup> Manba: Kim et al. (2026), Deloitte (2024), KPMG (2025)

<sup>2</sup> <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/sd.70370>

texnologiyalar va barqaror rivojlanishga investitsiya kiritishga ragʻbatlantirishi zarur. Korporativ boshqaruv darajasida esa ESG ni faqat hisobot majburiyati sifatida emas, balki strategik qarorlar qabul qilishning ajralmas qismi sifatida qabul qilish, uch komponentni tengsiz emas, balki muvozanatli tarzda amalga oshirish va greenwashing xavfini kamaytirish uchun mustaqil tashqi tekshiruvni joriy etish tavsiya etiladi<sup>1</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari va korxonalarining ijtimoiy-ekologik masʼuliyati oʻzaro bogʻliq hamda bir-birini toʻldiruvchi yaxlit tizim ekanligini koʻrsatdi. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning makroiqtisodiy modelini shakllantirgan boʻlsa, ESG mezonlari ushbu tamoyillarni korporativ boshqaruv darajasida amaliy baholash va monitoring qilish vositasi sifatida namoyon boʻldi. Korxonalarining ijtimoiy-ekologik masʼuliyati esa ushbu ikki konsepsiyaning amaliy ifodasi sifatida shakllandi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, ESG reytingi yuqori korxonalar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va ekologik samaradorlikka ega boʻlmoqda. Ayniqsa, ekologik siyosat, korporativ boshqaruv sifati va ijtimoiy masʼuliyat omillarining uygʻunlashuvi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol oʻynamoqda. Shu bilan birga, greenwashing holatlari, ESG mezonlarini baholashdagi standartlashuv muammolari va rivojlanayotgan mamlakatlarda empirik maʼlumotlarning yetarli emasligi ushbu yoʻnalishdagi asosiy cheklolardan biri sifatida namoyon boʻldi.

Oʻzbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirish, ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish va korxonalarining ijtimoiy-ekologik masʼuliyatini kuchaytirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari yashil transformatsiya jarayonlari korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik xavflarni kamaytirishga ham xizmat qilishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Korxonalarda ESG mezonlarini joriy etish va baholash boʻyicha yagona milliy metodologiyani ishlab chiqish zarur.

2. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish maqsadida ekologik va ijtimoiy koʻrsatkichlarni strategik rejalashtirish jarayoniga kiritish lozim.

3. Korxonalarni ekologik innovatsiyalar va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishga ragʻbatlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

4. ESG hisobotlarini tayyorlashda shaffoflikni taʼminlash va greenwashing holatlarining oldini olish maqsadida mustaqil audit va monitoring tizimlarini rivojlantirish zarur.

---

<sup>1</sup> <https://www.frontiersin.org/journals/sustainability/articles/10.3389/frsus.2024.1454822/full>

5. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda yashil iqtisodiyot, ESG va barqaror korporativ boshqaruv yo'nalishlarida maxsus ta'lim dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

6. Raqamli transformatsiya jarayonlarini ESG boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish orqali korxonalarda ma'lumotlar sifati, ekologik monitoring va resurslardan samarali foydalanish tizimlarini rivojlantirish lozim.

7. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida ESG mezonlari hamda ijtimoiy-ekologik mas'uliyatning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi korxonalar faoliyatining ekologik va ijtimoiy samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bloomberg Intelligence (2024). Global ESG assets predicted to hit \$40 trillion by 2030 despite challenging environment. Bloomberg LP. <https://www.bloomberg.com/company/press/global-esg-assets-predicted-to-hit-40-trillion-by-2030>

2. Broadstock, D. C., Chan, K., Cheng, L. T. W., & Wang, X. (2021). The role of ESG performance during times of financial crisis: Evidence from COVID-19 in China. *Finance Research Letters*, 38, 101716. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101716>

3. Deloitte US (2024). 2024 Sustainability Action Report: ESG reporting and disclosure readiness. Deloitte Insights. <https://www.deloitte.com/us/en/services/audit-assurance/articles/esg-survey.html>

4. Freeman, R. E. (1984). *Strategic Management: A Stakeholder Approach*. Pitman Publishing.

5. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233. <https://doi.org/10.1080/20430795.2015.1118917>

6. KPMG International (2025). The challenge of greenwashing: An international regulatory overview. KPMG. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmgsites/xx/pdf/2025/12/greenwashing-regulatory-overview.pdf>

7. Kim, J., Lee, S., & Park, H. (2026). Environmental, social, and governance (ESG) research: A systematic review of recent trends (2020–2024). *Sustainable Development*. <https://doi.org/10.1002/sd.70370>

8. LSEG (2025). Investing in the green economy 2025. London Stock Exchange Group. [https://www.lseg.com/content/dam/lseg/en\\_us/documents/sustainability/investing-in-green-economy-2025.pdf](https://www.lseg.com/content/dam/lseg/en_us/documents/sustainability/investing-in-green-economy-2025.pdf)

9. OECD (2024). *Global Corporate Sustainability Report 2024*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/8416b635-en>

10. OECD (2025). Global Corporate Sustainability Report 2025. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/bc25ce1e-en>
11. Parivo, W., & Srisuphaolarn, P. (2025). ESG scores and financial growth: A pathway to corporate sustainability. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 15(4). <https://doi.org/10.32479/ijefi.18599>
12. PwC (2025). Global Sustainability Reporting Survey. PricewaterhouseCoopers International. <https://www.pwc.com/gx/en/issues/esg/global-sustainability-reporting-survey.html>
13. Skadden, Arps, Slate, Meagher & Flom LLP (2025). ESG: A review of 2024 and key trends to look for in 2025. Skadden Insights. <https://www.skadden.com/insights/publications/2025/01/esg-a-review-of-2024-and-key-trends-to-look-for-in-2025>
14. Treepongkaruna, S., Kyaw, K., & Jiraporn, P. (2024). Greenwashing, carbon emission, and ESG. *Business Strategy and the Environment*, 33(8), 8526–8539. <https://doi.org/10.1002/bse.3929>
15. UNEP (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. United Nations Environment Programme.
16. Vena Solutions (2025). 38 ESG statistics to leverage for business growth in 2025. <https://www.venasolutions.com/blog/esg-statistics>
17. World Bank (2023). *Mobilizing Private Finance for Nature*. World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
18. Yang, Z., Wang, X., & Chen, Y. (2024). E, S, and G, not ESG: Heterogeneous effects of environmental, social, and governance disclosure on green innovation. *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*, 31(2), 1220–1238. <https://doi.org/10.1002/csr.2627>
19. Zhang, L. S. (2025). The impact of ESG performance on the financial performance of companies: Evidence from China's Shanghai and Shenzhen A-share listed companies. *Frontiers in Environmental Science*, 13, 1507151. <https://doi.org/10.3389/fenvs.2025.1507151>
20. Zhang, Y., Li, X., & Zhao, M. (2024). Green innovation, digital transformation, and ESG performance. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12, 1–14. <https://doi.org/10.1057/s41599-025-06027-9>
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-oktabrdagi PF-5847-son “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha milliy maqsad va vazifalari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-oktabr 619-son “Yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6674688>
23. Абрамов, В. Л. (2020). Зелёная экономика и устойчивое развитие: теория и практика. Москва: ЮНИТИ-ДАНА.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**